

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №1 (32)



ISSN 2181-9505

Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №1 (32)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas‘ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay‘ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d., professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	---

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Abduraxmonov Muxiddin Shamsievich	O'ZBEKISTONNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA A'ZOLIGINING TARIXIY EVOLYUSIYASI VA IJTIMOY-FALSAFIY-MAFKURAVIY TAHLILI	9-19
Andirjanova Gulnar Abylxairovna, Ivashov Arslan Amanbayevich	QOZOG'ISTON JAMIYATI IDENTIKLIGINI SAQLASH ZAMONAVIY GLOBAL TAHDIDLARGA JAVOB SIFATIDA	20-32
Usmonov Saidikromxo'ja Saidaliyevich	KIBERXAVFSIZLIK GLOBALIZATSIYA DAVRIDA MILLIY SUVERENITETNI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA	33-47

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Aminjonov Qurbon Habibullaevich	INTERNET KOMMUNIKATSIYALARI YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY FENOMENI SIFATIDA	48-60
Berdikulova Gulsarvinoz Aslamovna	IJTIMOY TARAQQIYOTDA DISKURS VA MA'NO TRANSFORMATSIYASINING KOMMUNIKATIV MEXANIZMLARI	61-71
Qodirov Javlonbek Abdusattor o'g'li	ONG VA TIL MUNOSABATINING GERMENEVTIK VA ANALITIK FALSAFA NUQTAI NAZARIDAN TAHLILI	72-81

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Po'latov Anvar Akmalovich	POSTMODERNIZM PARADIGMASIDA BORLIQ KONSEPSIYASINING TALQINI VA UNING AHAMIYATI	82-91
Xaydarova Zebiniso	THE EVOLUTION OF THE CATEGORY OF TRUTH IN CLASSICAL, MODERN, AND POSTMODERN PHILOSOPHY AND THE TENDENCIES OF RELATIVISM IN GLOBAL CONSCIOUSNESS	92-102

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Dr. Yetunde Abolaji Akinnawo, Dr. Amos Ayodele Okeowo	IK'YHE ZAMONAVIY XRISTIANLIKDA QUDRAT TIMSOLI SIFATIDA	103-115
Shakenov Dias Pavlovich	POSTNORMAL JAMIYATDA EKOLOGIK MADANIYAT VA EKOLOGIK QADRIYATLAR TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI	116-126



Berdikulova Gulsarvinoz Aslamovna,

o'qituvchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti.

(Toshkent, O'zbekiston)

gulsarvinozberdikulova@gmail.com

IJTIMOYIY TARAQQIYOTDA DISKURS VA MA'NO TRANSFORMATSIYASINING KOMMUNIKATIV MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida kommunikatsiya jarayonlari tobora murakkablashib, diskurs va ma'no o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamik xarakter kasb etmoqda. Ayniqsa, globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot makonining kengayishi natijasida ma'nolar transformatsiyasi jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda diskurs nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki ma'noni shakllantiruvchi va qayta qurishga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, mavjud ilmiy tahlillarda diskurs va ma'no transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlari yetarlicha tizimli o'rganilmagani, ayniqsa, ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri, axborot muhitida ma'nolarning manipulyatsiyasi va interpretatsiyasi bilan bog'liq muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, ushbu maqolada ijtimoiy taraqqiyotda diskurs va ma'no transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlari, ularning shakllanish omillari, funksional xususiyatlari hamda jamiyatdagi axborot almashinuvi va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri har tomonlama ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: diskurs, ma'no transformatsiyasi, kommunikatsiya, ijtimoiy taraqqiyot, axborot makoni, interpretatsiy.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlanganda, har bir davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy shakllanishi, avvalo, ma'no yaratish va uni uzatish jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekani namoyon bo'ladi. Qadimgi jamiyatlarda mifologik tafakkur orqali shakllangan diskurslar insonning borliqni anglash usulini belgilagan bo'lsa, antik va o'rta asrlar davrida diniy-falsafiy diskurslar ma'noning mutlaq va muqaddas tabiatini asoslab bergan. Yangi davrga kelib esa ratsionalizm va ilmiy tafakkur ustuvorligi diskursning mazmuni va funksiyasini tubdan o'zgartirib, ma'noni subyektiv anglash va qayta talqin qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Zamonaviy bosqichda globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar va

axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida diskurs va ma'no o'rtasidagi munosabat yanada murakkab tus olmoqda. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida diskurs nafaqat voqelikni aks ettiruvchi vosita, balki uni shakllantiruvchi, hatto qayta konstruksiya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ma'noning doimiy transformatsiyasiga, uning turli ijtimoiy subyektlar tomonidan qayta ishlab chiqilishiga olib keladi. Ayniqsa, siyosiy va madaniy sohalarida diskursiv ta'sir orqali jamoat ongini yo'naltirish, ijtimoiy qadriyatlarni qayta belgilash va ma'noni strategik ravishda boshqarish tendensiyalari kuchaymoqda. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, diskurs va ma'no o'rtasidagi munosabat bu borliqni anglash, uni talqin qilish va ijtimoiy tajribaga aylantirish jarayonining markaziy masalasidir. Ma'no transformatsiyasi esa insonning kognitiv, madaniy va ijtimoiy faoliyati natijasida shakllanadigan dinamik hodisa bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining yo'nalishi va sur'atini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, diskurs kommunikativ mexanizm sifatida nafaqat axborot uzatishni ta'minlaydi, balki ma'noni yaratish, qayta ishlash va legitimlashtirish orqali ijtimoiy voqelikni konstruksiya qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy taraqqiyotda diskurs va ma'no transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlarini tarixiylik, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilish ularning falsafiy mohiyatini chuqur anglash, shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi axborot va ma'no bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Ijtimoiy taraqqiyotda diskurs va ma'no transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlarini anglash, mazkur muammoning turli ilmiy maktablar va mutafakkirlar tomonidan qanday talqin qilinganini tahlil qilishni talab etadi. Bu borada diskurs nazariyasi, germeneytika, poststrukturalizm va ijtimoiy falsafa doirasida shakllangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs tushunchasini ilmiy muomalaga keng joriy etgan olimlardan biri M. Fuko bo'lib, u diskursni bilim va hokimiyat munosabatlari orqali shakllanuvchi ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, har qanday ma'no muayyan diskursiv tizim doirasida vujudga keladi va shu tizim orqali legitimlashtiriladi [Fuko, 1972, b. 49]. Fuko yondashuvida ma'no transformatsiyasi hokimiyat munosabatlarining o'zgarishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, diskurs ijtimoiy voqelikni konstruksiya qiluvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Y. Xabermas esa diskursni kommunikativ aql konsepsiyasi asosida tahlil qiladi. Uning nazariyasiga ko'ra, diskurs bu konsensusga erishishga qaratilgan ratsional muloqot jarayoni bo'lib, ma'no erkin va teng ishtirok asosida shakllanadi [Xabermas, 1981, b. 86]. Fuko bilan solishtirganda, Xabermas diskursni hokimiyat vositasi emas, balki ijtimoiy kelishuvga erishish mexanizmi sifatida baholaydi. Bu ikki yondashuv o'rtasidagi farq diskursning normativ va deskriptiv tabiatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Germaneytik an'anada, xususan, X.-G. Gadamer qarashlarida ma'no transformatsiyasi tushunish jarayoni bilan bog'liq holda izohlanadi. Uning fikricha, ma'no doimiy tarzda qayta talqin qilinadi va u subyektning tarixiy tajribasi hamda

madaniy kontekstiga bogʻliq holda oʻzgaradi [Gadamer, 1960, b. 302]. Bu yondashuv diskursni faqat axborot uzatish emas, balki maʼno yaratish va qayta ishlash jarayoni sifatida koʻrish imkonini beradi. Poststrukturalistik yondashuvda J. Derrida maʼnoning barqaror emasligini va uning doimiy kechiktirilishi (différance) gʻoyasini ilgari suradi. Uning fikricha, maʼno hech qachon toʻliq aniqlanmaydi va u doimiy ravishda boshqa belgilar orqali shakllanadi [Derrida, 1967, b. 158]. Bu esa diskursni ochiq va cheklanmagan maʼno maydoni sifatida tushunishga olib keladi. Shuningdek, T. van Deyk ijtimoiy kognitiv yondashuv doirasida diskursni ijtimoiy ong va bilimlar tizimi bilan bogʻlaydi. Uning fikricha, diskurs orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki ijtimoiy tasavvurlar, stereotiplar va ideologiyalar ham shakllanadi [van Deyk, 1998, b. 21]. Bu qarash diskursning ijtimoiy taraqqiyotga taʼsirini kognitiv mexanizmlar orqali izohlash imkonini beradi. Yuqoridagi yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, diskurs va maʼno transformatsiyasi turli ilmiy maktablarda turlicha talqin qilinsa-da, ularning barchasida diskursning maʼno yaratish va ijtimoiy voqelikni shakllantirishdagi hal qiluvchi roli eʼtirof etiladi. Fuko va Derrida yondashuvlari diskursning tanqidiy va dekonstruktiv jihatlarini ochib bersa, Xabermas va Gadamer qarashlari uning kommunikativ va interpretativ mohiyatini asoslaydi. Van Deyk esa mazkur jarayonning kognitiv va ijtimoiy mexanizmlarini yoritadi. Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotda diskurs va maʼno transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlarini oʻrganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanilgan. Avvalo, qiyosiy tahlil metodi orqali turli olimlarning qarashlari oʻzaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlandi. Bu metod diskurs nazariyalarining turli paradigmalar doirasidagi oʻrnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Germenevтик metod yordamida maʼno transformatsiyasi tushunish va talqin qilish jarayoni sifatida tahlil qilindi. Ushbu metod matn va diskursni chuqur anglash, ularning yashirin maʼnolarini ochib berish imkonini berdi. Shuningdek, diskurs-tahlil metodi orqali ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlarida maʼnoning shakllanishi va oʻzgarishi mexanizmlari oʻrganildi. Bu metod ayniqsa, diskursning ijtimoiy va siyosiy kontekstdagi rolini aniqlashda samarali boʻldi. Tizimli yondashuv metodi asosida diskurs va maʼno transformatsiyasi oʻzaro bogʻliq va kompleks jarayon sifatida koʻrib chiqildi. Bu esa ularning ijtimoiy taraqqiyotga taʼsirini yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi. Nihoyat, fanlararo yondashuv orqali falsafa, lingvistika, sotsiologiya va siyosatshunoslik fanlari kesishmasida mazkur muammo keng qamrovda oʻrganildi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Diskursni ijtimoiy voqelikni konstruksiya qiluvchi mexanizm sifatida tushunish zamonaviy falsafa va ijtimoiy gumanitar fanlarda paradigmatic burilishni anglatadi. Agar anʼanaviy yondashuvlarda til va nutq voqelikni aks ettiruvchi passiv vosita sifatida qaralgan boʻlsa, zamonaviy nazariyalarda diskurs faol, yaratuvchi va transformator kuch sifatida talqin etiladi. Bu nuqtai nazar, avvalo, M. Fukoning diskurs nazariyasida oʻzining aniq ifodasini topadi. Uning taʼkidlashicha, bilim hech qachon neytral emas, balki muayyan hokimiyat

munosabatlari doirasida shakllanadi va tarqatiladi [Fuko 1972 b.49]. Fuko qarashlarining falsafiy mohiyati shundaki, “haqiqat” tushunchasi obyektiv va o‘z-o‘zidan mavjud reallik emas, balki diskursiv amaliyotlar natijasida shakllangan ijtimoiy konstruksiyadir. Bu yerda diskurs “nima haqiqat hisoblanishi mumkin?” degan savolga javob beruvchi institusional va madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, tibbiyot, huquq yoki ta’lim sohalaridagi diskurslar muayyan bilim shakllarini legitimlashtiradi va boshqalarini cheklaydi. Demak, diskurs ijtimoiy voqelikni tanlash, tartibga solish va institusionallashtirish orqali uni “yaratadi”. Bu jarayonni yanada chuqurroq anglash uchun konstruktivizm g‘oyalariga murojaat qilish lozim. P. Berger va T. Lukman ijtimoiy voqelikni inson faoliyati natijasida vujudga keluvchi va keyinchalik “obyektivlashtirilgan” tizim sifatida tushuntiradi [Berger 1966 b.78]. Ularning fikricha, insonlar tomonidan yaratilgan ma’nolar va institutlar vaqt o‘tishi bilan tabiiy va o‘zgarmas haqiqatdek qabul qilina boshlaydi. Bu esa diskurs orqali shakllangan ma’nolarning ijtimoiy ongda mustahkamlanishini anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diskurs uch bosqichli mexanizm sifatida amal qiladi, unda ma’no yaratish – ijtimoiy subyektlar voqelikni muayyan tushunchalar va kategoriyalar orqali ifodalaydi, ma’noni institusionallashtirish – ushbu tushunchalar ijtimoiy institutlar va normalar orqali mustahkamlanadi, ma’noni legitimlashtirish – ular haqiqat sifatida qabul qilinib, qayta ishlab chiqariladi. Fuko nazariyasida bu jarayon hokimiyat bilan uzviy bog‘liq: kim diskursni nazorat qilsa, u ma’noni va demak, voqelikni ham nazorat qiladi. Shu bois diskursni tahlil qilish bu faqat tilni emas, balki hokimiyat strukturalarini tahlil qilish demakdir. Shu bilan birga, diskursning konstruktiv roli faqat makroiijtimoiy darajada emas, balki mikrodarajada kundalik muloqot jarayonlarida ham namoyon bo‘ladi. E. Goffman ijtimoiy o‘zaro ta’sirni “ssenariy” sifatida ko‘rib, insonlar o‘z rollarini muayyan diskursiv qoidalar asosida bajarishini ta’kidlaydi [Goffman 1959 b.32]. Bu esa diskursning ijtimoiy identichlikni shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Falsafiy jihatdan, mazkur yondashuv ontologiya va gnoseologiya o‘rtasidagi munosabatni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi. Agar an’anaviy ontologiyada borliq insondan mustaqil deb qaralsa, diskursiv yondashuvda borliq inson tafakkuri va kommunikatsiyasi orqali shakllanadi. Bu esa “ijtimoiy ontologiya” tushunchasini yuzaga keltiradi, ya’ni jamiyatdagi voqeliklar (davlat, huquq, qadriyatlar) tabiiy emas, balki diskursiv kelishuvlar natijasidir. Shu bilan birga, diskursning konstruktiv tabiati uning ikkiyoqlama xususiyatini ham namoyon qiladi. Bir tomondan, u ijtimoiy tartib, barqarorlik va hamjihatlikni ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan esa, u manipulyatsiya, ideologik ta’sir va ma’noni burmalash vositasiga aylanishi mumkin. Masalan, siyosiy diskurs orqali jamoatchilik fikri shakllantirilishi yoki ma’lum g‘oyalar ustuvor qilib ko‘rsatilishi mumkin. Bu holat diskursni tanqidiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Diskurs ijtimoiy voqelikni konstruksiya qilishda markaziy o‘rin egallaydi. U orqali insonlar nafaqat voqelikni anglaydi, balki uni yaratadi, qayta ishlaydi va transformatsiya qiladi. Shu ma’noda diskurs bu ijtimoiy taraqqiyotning ichki “intellektual mexanizmi” bo‘lib, u ma’no, hokimiyat va bilim o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifoda etadi. Ma’no transformatsiyasini

germenevtik nuqtai nazardan tahlil qilish, avvalo, “tushunish” fenomeniga falsafiy yondashuvni talab etadi. Hermenevtika an’anasida ma’no statik va o’zgarmas hodisa sifatida emas, balki tarixiy, madaniy va subyektiv omillar ta’sirida doimiy ravishda qayta shakllanuvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. X.-G. Gadamer bu jarayonni insonning “tarixiy ongliligi” bilan bog’lab, har qanday tushunish oldindan mavjud bo’lgan tajriba va qarashlar (prejudices) orqali amalga oshishini ta’kidlaydi [Gadamer 1960 b.302]. Gadamer qarashlarining mohiyati shundaki, inson hech qachon “sof” holda tushunmaydi; u har doim muayyan madaniy va tarixiy kontekst doirasida fikrlaydi. Demak, ma’no — bu obyektning o’zidan kelib chiqadigan tayyor mazmun emas, balki subyekt va matn (yoki voqelik) o’rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadigan dinamik hodisadir. Bu jarayon “gorizontlar qo’shilishi” (fusion of horizons) tushunchasi orqali izohlanadi, ya’ni o’quvchi (yoki qabul qiluvchi) o’zining tushunish gorizontini matn gorizonti bilan uyg’unlashtiradi. Shu jarayonda ma’no o’zgaradi, boyiydi va yangi mazmun kasb etadi.

Ma’no transformatsiyasining hermenevtik tabiatini yanada chuqurroq anglash uchun P. Rikyor qarashlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq. U ma’noni “ko’pqatlamli” hodisa sifatida talqin qilib, har qanday matn bir nechta interpretatsiya imkoniyatlariga ega ekanini ta’kidlaydi [Rikyor 1976 b.87]. Bu yerda muhim jihat shundaki, ma’no bir marta berilmaydi, balki har bir yangi talqinda qayta yaratiladi. Rikyorga ko’ra, interpretatsiya bu ma’noni ochish emas, balki uni yaratish jarayonidir. Bu fikr hermenevtik yondashuvni konstruktivizm bilan yaqinlashtiradi. Chunki ma’no transformatsiyasi faqat tushunish emas, balki ma’noni qayta ishlab chiqish, uni yangi ijtimoiy va madaniy sharoitlarga moslashtirish jarayonidir. Masalan, bir xil matn turli davrlarda turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu esa ma’noning tarixiy o’zgaruvchanligini va uning ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog’liqligini ko’rsatadi. Shu bilan birga, hermenevtik doira (hermeneutic circle) tushunchasi ma’no transformatsiyasining ichki mexanizmini ochib beradi. Unga ko’ra, inson matnni tushunishda doimo butun va qism o’rtasida harakat qiladi: butunni anglash uchun qismlarni tushunadi, qismlarni anglash uchun esa butunga murojaat qiladi. Bu jarayon doimiy takrorlanib, har safar yangi ma’noni yuzaga keltiradi. Demak, ma’no transformatsiyasi bu davriy va cheksiz jarayondir. Falsafiy jihatdan qaraganda, hermenevtik yondashuv gnoseologiyadagi obyekt–subyekt munosabatini qayta ko’rib chiqadi. Agar an’anaviy yondashuvda subyekt obyektни passiv ravishda anglaydi deb qaralsa, hermenevtikada subyekt faol ishtirokchi bo’lib, ma’no yaratish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa ma’noning subyektiv-obyektiv dialektikasini yuzaga keltiradi, ma’no na faqat obyektда, na faqat subyektда, balki ularning o’zaro ta’sirida mavjud bo’ladi. Ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan, ma’no transformatsiyasining hermenevtik tabiati juda muhim ahamiyatga ega. Chunki jamiyatdagi har qanday o’zgarish, avvalo, ma’nolar tizimining o’zgarishi orqali amalga oshadi. Masalan, “erkinlik”, “adolat”, “taraqqiyot” kabi tushunchalar turli davrlarda turlicha mazmun kasb etadi. Bu esa ijtimoiy munosabatlar va siyosiy qarorlarga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu nuqtai nazardan, diskurs hermenevtik jarayonning tashqi ifodasi sifatida

namoyon bo'ladi. YA'ni, insonlar o'rtasidagi muloqot bu ma'no almashinuvi emas, balki ma'no yaratish va qayta yaratish jarayonidir. Har bir kommunikativ akt yangi interpretatsiyani, demak, yangi ma'noni yuzaga keltiradi.

Diskurs jarayonida, ma'no transformatsiyasining germeneytik tabiati uning dinamik, ko'pqatlamli va ochiq xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. U tushunish, talqin va muloqot jarayonlarida shakllanadi hamda ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviy-intellektual asosini tashkil etadi. Shu ma'noda, germeneytika diskurs va ma'no o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda muhim falsafiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ ratsionallik tushunchasi zamonaviy ijtimoiy falsafada diskursning mohiyatini anglashda markaziy o'rin tutadi. Y. Xabermas o'zining kommunikativ harakat nazariyasida diskursni faqat axborot almashinuvi emas, balki ijtimoiy kelishuvga erishishga qaratilgan ratsional muloqot jarayoni sifatida talqin qiladi [Xabermas 1981 b.86]. Uning fikricha, insonlar o'rtasidagi haqiqiy kommunikatsiya manipulyatsiya yoki majburlashga emas, balki o'zaro tushunish va dalillarga asoslangan kelishuvga tayanadi. Xabermas nazariyasining falsafiy mohiyati shundaki, u ratsionallikni instrumental emas, balki kommunikativ mazmunda qayta talqin qiladi. An'anaviy yondashuvlarda ratsionallik ko'proq maqsadga erishish vositasi sifatida tushunilgan bo'lsa, Xabermasda u muloqot orqali haqiqatga yaqinlashish va ijtimoiy kelishuvni ta'minlash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa diskursni faqat til hodisasi emas, balki axloqiy-ijtimoiy amaliyot sifatida ko'rish imkonini beradi. Kommunikativ ratsionallikning asosida "ideal nutq holati" konsepsiyasi yotadi. Bu holatda barcha ishtirokchilar teng huquqli, erkin va tashqi bosimlardan xoli bo'lib, o'z fikrlarini erkin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday sharoitda ma'no transformatsiyasi majburlash yoki manipulyatsiya orqali emas, balki argumentatsiya va muloqot orqali amalga oshadi. Demak, ma'no bu bir tomonlama yuklanadigan mazmun emas, balki o'zaro kelishuv natijasida shakllanadigan ijtimoiy hodisadir. Bu jarayonni chuqurroq anglash uchun Xabermas tomonidan ishlab chiqilgan "validlik da'volari" tushunchasiga e'tibor qaratish zarur. Unga ko'ra, har qanday nutq akti to'rtta asosiy da'voni haqiqat, to'g'rilik, samimiylik va tushunarlilik [Xabermas 1981 b.107] qamrab oladi. Agar ushbu da'volar muloqot jarayonida tan olinsa, kommunikatsiya samarali bo'ladi va konsensusga erishish imkoni paydo bo'ladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu konsepsiya ma'no transformatsiyasining normativ asosini belgilaydi. YA'ni, ma'no qanday shakllanishi kerakligi masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Agar Fuko diskursni hokimiyat bilan bog'lab, uning tanqidiy tahlilini bergan bo'lsa, Xabermas diskursni ideal holatda qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, ularning yondashuvlari bir-birini to'ldiradi, ya'ni biri deskriptiv, ikkinchisi normativ xarakterga ega. Kommunikativ ratsionallik ijtimoiy taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi, chunki u jamiyatda konsensusga erishish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va nizolarni hal qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Masalan, demokratik jamiyatlarda siyosiy qarorlar aynan ochiq va erkin diskurs orqali qabul qilinadi. Bu jarayonda turli qarashlar to'qnashadi, muhokama qilinadi va oxir-oqibatda umumiy qarorga kelinadi. Demak, diskurs

ijtimoiy integratsiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, kommunikativ ratsionallikning amaliy qiyinchiliklari ham mavjud. Real ijtimoiy sharoitda “ideal nutq holati”ga to‘liq erishish qiyin, chunki kommunikatsiya ko‘pincha hokimiyat, iqtisodiy manfaatlar va ideologik ta’sirlar bilan cheklanadi. Bu holatda diskurs manipulyatsiya vositasiga aylanishi mumkin. Masalan, ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum g‘oyalarning ustuvor qilib ko‘rsatilishi yoki alternativ fikrlarning cheklanishi kommunikativ ratsionallikni buzadi. Bu muammoni hal qilish uchun tanqidiy diskurs tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. U kommunikatsiyadagi yashirin hokimiyat munosabatlarini ochib berish va erkin muloqot uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, kommunikativ ratsionallik nafaqat nazariy konsepsiya, balki amaliy ideal sifatida ham qaraladi. Kommunikativ ratsionallik va konsensus mexanizmi diskurs orqali ma’no transformatsiyasining eng muhim shakllaridan biridir. U ijtimoiy taraqqiyotda barqarorlik, o‘zaro tushunish va hamjihatlikni ta’minlaydi. Biroq uning samaradorligi erkinlik, tenglik va ochiq muloqot kabi shart-sharoitlarga bog‘liq. Shu ma’noda, diskurs bu nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ijtimoiy adolat va demokratiyaning falsafiy asosidir. Ma’noning dekonstruksiyasi masalasi poststrukturalistik falsafada diskurs va ma’no munosabatlarini qayta anglashning eng radikal yondashuvlaridan biridir. J. Derrida ma’noni barqaror, qat’iy va yakuniy mazmunga ega tizim sifatida emas, balki doimiy o‘zgarish, kechiktirilish va boshqa belgilar bilan bog‘liq dinamik jarayon sifatida talqin qiladi [Derrida 1967 b.158]. Uning “différance” konsepsiyasiga ko‘ra, ma’no hech qachon to‘liq hozir bo‘lmaydi, u doimo boshqa belgilar orqali “kechiktiriladi” va qayta ishlab chiqiladi. Bu yondashuvning falsafiy mohiyati shundaki, u G‘arb metafizikasida ustuvor bo‘lgan “markaz”, “asos”, “yakuniy haqiqat” kabi tushunchalarni tanqid qiladi. Derridaga ko‘ra, har qanday matn yoki diskurs o‘z ichida ichki ziddiyatlarga ega bo‘lib, ma’noning barqarorligini yo‘qqa chiqaradi. Demak, ma’no bu tayyor hodisa emas, balki belgilar o‘rtasidagi cheksiz o‘yin (play of signs) natijasidir. Mazkur nazariyaning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati shundaki, u diskurs orqali shakllanadigan “obyektiv haqiqat” tushunchasini shubha ostiga qo‘yadi. Agar ma’no barqaror emas bo‘lsa, demak har qanday ijtimoiy, siyosiy va madaniy diskurs ham muqarrar ravishda qayta talqin qilinishi mumkin. Bu esa jamiyatda ma’no plyuralizmi va interpretatsiya erkinligini asoslab beradi.

Dekonstruktiv yondashuvda matnning “ichki markazi” yo‘q, ya’ni uning ma’nosi bir nuqtada jamlanmagan. Bu holat Fuko va Xabermas qarashlaridan farq qiladi: Fuko diskursni hokimiyat strukturalari bilan bog‘lasa, Xabermas uni ratsional konsensus vositasi sifatida ko‘radi, Derrida esa ma’noning o‘zi doimiy beqaror va ochiq ekanini ta’kidlaydi. Shuning uchun uning yondashuvi tanqidiy-falsafiy radikallikka ega. Ma’noning barqaror emasligi g‘oyasi ijtimoiy taraqqiyotni ham yangi nuqtai nazardan tushunish imkonini beradi. Agar ma’no doimiy o‘zgaruvchan bo‘lsa, demak ijtimoiy normalar, qadriyatlar va institutlar ham tarixiy sharoitga qarab qayta shakllanadi. Masalan, “adolat”, “huquq”, “erkinlik” kabi tushunchalar turli davr va madaniyatlarda turlicha mazmun kasb etadi. Bu esa ijtimoiy rivojlanishni statik emas, balki dinamik jarayon sifatida

ko'rishga olib keladi. Shu bilan birga, dekonstruksiya metodi matn va diskursda yashirin iyerarxiyalar va qarama-qarshiliklarni ochib berishga xizmat qiladi. U har qanday diskursiv tizimda "ustun" va "ikkinchi darajali" ma'nolar mavjudligini ko'rsatadi va ular o'rtasidagi munosabatni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi va ideologik yopiq tizimlarni fosh qilish imkonini beradi. Falsafiy jihatdan, dekonstruksiya ontologiya va epistemologiya o'rtasidagi chegaralarni ham muammoli qiladi. Agar ma'no barqaror bo'lmasa, demak bilim ham doimiy qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan jarayonga aylanadi. Bu holat postmodern tafakkurning asosiy xususiyati nisbiylik va ko'pqirralilikni anglatadi. Ma'noning dekonstruksiya va barqaror emasligi g'oyasi diskursni ochiq, cheksiz va ko'ptalqinli maydon sifatida tushunish imkonini beradi. U ijtimoiy taraqqiyotda yangi ma'no shakllarining paydo bo'lishiga, qadriyatlar transformatsiyasiga va tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diskursning kognitiv va ideologik mexanizmlari masalasi ijtimoiy tafakkur, ong va kommunikatsiya o'rtasidagi murakkab bog'lanishni ochib beradi. Bu yondashuvda diskurs faqat til yoki nutq tizimi emas, balki insonning bilimlarini shakllantiradigan, ularni qayta ishlaydigan va ijtimoiy reallikka aylantiradigan kognitiv-ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. T. van Deykning qarashlariga ko'ra, diskurs orqali insonlar nafaqat axborot qabul qiladi, balki ijtimoiy tasavvurlar, stereotiplar va ideologik modellarni ham shakllantiradi [van Deyk 1998 b.21]. Bu nazariyaning asosiy falsafiy jihat shundaki, inson ongi "neytral qabul qiluvchi" emas, balki faol interpretativ struktura sifatida ishlaydi. YA'ni har qanday diskurs insonning kognitiv sxemalari (mental models) orqali qayta ishlanadi va shu asosda ma'no shakllanadi. Demak, ma'no transformatsiyasi tashqi diskursiv ta'sir va ichki kognitiv jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasidir. Ma'fura masalasi bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'fura bu faqat siyosiy qarashlar tizimi emas, balki diskurs orqali inson ongiga singdiriladigan bilimlar va qadriyatlar majmuasidir. Van Deykga ko'ra, ideologiyalar diskurs strukturasida yashirin holda joylashadi va ular tabiiy haqiqat sifatida qabul qilinishga olib keladi [van Deyk 1998 b.45]. Bu esa diskursning manipulyativ imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Kognitiv mexanizmlar nuqtai nazaridan, insonlar ma'lum diskursiv modellar asosida voqelikni "filtr" orqali qabul qiladi. Masalan, media diskurslar orqali ma'lum voqealarga ijobiy yoki salbiy ma'no yuklanishi mumkin. Shu tariqa, bir xil voqelik turli kognitiv ramkalar orqali turlicha anglanadi. Bu holat ma'noning subyektiv-ijtimoiy xarakterini yanada kuchaytiradi. Ma'furaviy mexanizmlar esa diskurs orqali ijtimoiy hokimiyat munosabatlarini legitimlashtiradi. Fuko ta'kidlaganidek, bilim va hokimiyat bir-biridan ajralmas bo'lib, har qanday diskurs muayyan hokimiyat strukturasini qo'llab-quvvatlaydi [Fuko 1972 b.49]. Demak, diskurs orqali ma'lum g'oyalar ustun qilinadi va boshqalari cheklanadi. Falsafiy jihatdan, bu yondashuv ijtimoiy reallikning "obyektivligi"ni shubha ostiga qo'yadi. Agar bilimlar va ma'nolar ideologik va kognitiv strukturalar orqali shakllansa, demak reallik ham interpretatsiyaga bog'liq bo'ladi. Bu esa konstruktivistik yondashuvni yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, diskursning kognitiv-ma'furaviy tabiati ijtimoiy taraqqiyot uchun ikki yoqlama ahamiyatga ega. Bir

tomondan, u jamiyatda umumiy ma'no tizimini shakllantirib, ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Ikkinchi tomondan esa, u manipulyatsiya, stereotiplashtirish va mafkuraviy nazorat vositasiga aylanishi mumkin. Diskursning kognitiv va mafkuraviy mexanizmlari inson ongi, ijtimoiy bilim va hokimiyat munosabatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Bu mexanizmlar orqali ma'no shakllanadi, qayta ishlanadi va ijtimoiy reallikka aylanadi.

XULOSA

Ijtimoiy taraqqiyotda diskurs va ma'no transformatsiyasining kommunikativ mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat rivoji faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan emas, balki ma'no ishlab chiqarish va uni uzatish tizimlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Diskurs bu jarayonda oddiy til vositasi emas, balki ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va qayta quruvchi faol mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Fuko qarashlari asosida diskursning hokimiyat va bilim bilan uzviy bog'liqligi ochildi, Gadamer va Rikyor hermenevtikasi ma'noning tarixiy va interpretativ tabiatini asosladi, Xabermasning kommunikativ ratsionalligi diskurs orqali konsensusga erishish imkoniyatini ko'rsatdi, Derrida esa ma'noning barqaror emasligi va doimiy dekonstruksiya moyilligini isbotladi, van Deyk esa diskursning kognitiv va ideologik mexanizmlarini ochib berdi. Bu yondashuvlarning umumiy tahlili shuni anglatadiki, ma'no ijtimoiy reallikda tayyor holda mavjud emas, balki u doimiy muloqot, talqin va qayta qurish jarayonida shakllanadi. Demak, ijtimoiy taraqqiyot bu faqat moddiy o'zgarish emas, balki ma'nolar tizimining uzluksiz transformatsiyasi hamdir. Shu bilan birga, diskursning ikkiyoqlama tabiati ham aniqlandi, u bir tomondan ijtimoiy integratsiya, kelishuv va barqarorlikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan ideologik ta'sir, manipulyatsiya va ma'noni burmalash imkoniyatini ham yaratadi. Shu bois diskursiv jarayonlarni tanqidiy tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy fanlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Demak, diskurs va ma'no transformatsiyasi jamiyatning intellektual va madaniy dinamikasini belgilab beruvchi fundamental omildir. Ularning kommunikativ mexanizmlarini chuqur anglash ijtimoiy taraqqiyotning ichki mantiqini ochib berish va zamonaviy global o'zgarishlarni falsafiy jihatdan izohlash imkonini beradi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Fuko M. (1972) Arxeologiya znaniY. -Moskva: Progress, 352 b.
2. Xabermas Y. (1981) Teoriya kommunikativnogo deystviY. -Moskva: Ves mir, 512 b.
3. Gadamer X.-G. (1960) Istina i metod. -Moskva: Progress, 704 b.
4. Derrida J. (1967) O grammatologii. -Moskva: Akademicheskii proyekt, 256 b.
5. van Deyk T. (1998) Ideologiya: mejdissiplinariy podxod. London: Sage, 384 b.

6. Fuko M. (1972) Arxeologiya znaniY. -Moskva: Progress, 352 b.
7. Berger P., Lukman T. (1966) Sotsialnoye konstruirovaniye realnosti. - Moskva: Medium, 323 b.
8. Goffman E. (1959) Predstavleniye sebya drugim v povsednevnoy jizni. - Moskva: Kanon, 304 b.
9. Gadamer X.-G. (1960) Istina i metod. -Moskva: Progress, 704 b.
10. Rikyor P. (1976) Interpretatsiya teoriyasi. -Moskva: Nauka, 224 b.
11. Derrida J. (1967) O grammatologii. -Moskva: Akademicheskiiy proyekt, 256 b.
12. Van Deyk T.(1998) Ideologiya: mejdissiplinarniy podxod. London: Sage, 384 b.
13. Fuko M. (1972) Arxeologiya znaniY. -Moskva: Progress, 352 b.

Бердикулова Гулсарвиноз Асламовна,

преподаватель

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

(Ташкент, Узбекистан)

gulsarvinoberdikulova@gmail.com

КОММУНИКАТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ДИСКУРСА И ТРАНСФОРМАЦИИ СМЫСЛА В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

Аннотация: В условиях современного развития общества процессы коммуникации становятся всё более сложными, а динамика взаимодействия дискурса и смысла приобретает трансформационный характер. Особенно в результате глобализации, развития цифровых технологий и расширения информационного пространства трансформация смыслов оказывает непосредственное влияние на социальное, политическое и культурное развитие общества. В данном процессе дискурс выступает не только как средство обмена информацией, но и как важный коммуникативный механизм формирования и реконструкции смысла. Однако в существующих научных исследованиях коммуникативные механизмы дискурса и трансформации смысла изучены недостаточно системно, особенно в аспекте их влияния на общественное развитие, а также проблем манипуляции и интерпретации смыслов в информационной среде. В связи с этим в данной статье всесторонне рассматриваются коммуникативные механизмы дискурса и трансформации смысла в социальном развитии, факторы их формирования, функциональные особенности, а также их влияние на информационный обмен и социальные отношения в обществе.

Ключевые слова: дискурс, трансформация смысла, коммуникация, социальное развитие, информационное пространство, интерпретация.

Gulsarvinoz Berdikulova Aslamovna,
Teacher
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.
(Tashkent, Uzbekistan)
gulsarvinozberdikulova@gmail.com

COMMUNICATIVE MECHANISMS OF DISCOURSE AND MEANING TRANSFORMATION IN SOCIAL DEVELOPMENT

Abstract: In the context of modern societal development, communication processes are becoming increasingly complex, and the interaction between discourse and meaning is acquiring a dynamic transformational character. In particular, due to globalization, digital technologies, and the expansion of the information space, the transformation of meanings has a direct impact on the social, political, and cultural development of society. In this process, discourse functions not only as a means of information exchange but also as an important communicative mechanism for the formation and reconstruction of meaning. However, existing scientific studies have not sufficiently systematized the communicative mechanisms of discourse and meaning transformation, especially regarding their impact on social development, as well as issues of manipulation and interpretation of meanings in the information environment. Therefore, this article comprehensively examines the communicative mechanisms of discourse and meaning transformation in social development, their formation factors, functional characteristics, and their influence on information exchange and social relations in society.

Keywords: discourse, meaning transformation, communication, social development, information space, interpretation.

